

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O.M.Normatov	
O'zbekistonning ma'muriy-hududiy holati rayonlashtirish o'tkazilishi arafasida	229
Sh.T.Tursunkulova	
G'azzoliyning go'zal axloq to'g'risidagi qarashlari.....	235
I.M.Azimov	
O'zbek-lotin alifbosini yaratish uchun harakatlar	239
Sh.D.Ismoilov	
Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shakl va metodlari	247
A.A.Qambarov	
Marg'ilonlik "Katta ashula" sohiblari.....	251
M.Kamalitdinov, T.Mavlanov	
Sharsimon qobiq dinamikasi qisman suyuqlik bilan to'ldirish.....	257
A.I.Saminov	
Oksyumoronning semantik xususiyatlari	261
I.X.Mavlonov	
Milliy yuksalish konsepsiyasini amalga oshirishning nazariy-metodologik asoslari	266
B.X.Baydjanov, Z.I.Muhammadiyeva	
O'quvchilarda mantiqiy kompetentlikni shakllantirish usullari.....	272
B.X.Baydjanov, M.R.Maxkamov	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantirish	276
Z.M.Abdullaev	
Asl turkiy antroponimlar va ularning tarixiy-etimologik shakllanishi	280
G'.Z.Abduraxmonov	
Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida g'oyaviy birlashuv zaruriyatini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari.....	284
O.A.Ashurova	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarida ekoestetik madaniyatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	288
Sh.Ismoilov	
Nogironlik tushunchasining modellari	293
D.O.G'afurov	
Yangi O'zbekistonda oila munosabatlarining huquqiy asoslari hamda uning jamiyat ma'naviy rivojida tutgan o'rni.....	300
D.B.Niyazov, M.M.Niyazova, Sh.M.Saydaxmedov, B.Z.Adizov, M.Y.Ismoilov	
Nitron tolasi chiqindisi asosida F-seriyali flokulyantlarni olish	303
D.S.Ergasheva	
O'zbek xalq ertaklari orqali vatansevarlik va do'stlikka o'rgatishning pedagogik strategiyasini ta'nishlash	308
G.M.Ravshanova	
Axborotlashgan jamiyatda ta'lim va ta'lim axborotlashuvining dialektik aloqadorligi muammosini o'rganish	313
O.O'.Xolmatova	
O'zbek xalq maqollarida miqdor konseptining kognitiv xususiyatlari.....	320
F.A.Tashpulatov	
O'quvchi yoshlarni basketbolga o'rgatish texnikasining usullari.....	324
S.G'.Shomurodova	
Nikoh urf-odatlar bilan bog'liq kiyimlarning to'y qo'shiqlaridagi poetik talqini.....	329
F.N.Usmonov	
Zamonaviy kompyuter etikasi muammolari	334
E.Sh.Jumayeva, U.U.Ruzmetov, Z.A.Smanova	
Suvdagi og'ir metallarni aniqlash usullari va og'ir metallarning organizm hayotiy faoliyatiga zaharli ta'siri	340
S.Sh.Do'saliyeva, V.U.Xo'jayev	
<i>Allium karataviense</i> o'simligi takibidagi flavonoidlar taxlili.....	349

TALABALARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK SHAKL VA METODLARI**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФОРМЫ И МЕТОДЫ ПОДГОТОВКИ УЧАЩИХСЯ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ****PEDAGOGICAL FORMS AND METHODS OF PREPARING STUDENTS FOR FAMILY LIFE****Ismoilov Sherzodbek Dilshodovich¹****¹Ismoilov Sherzodbek Dilshodovich**

– Farg‘ona davlat universiteti, Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasini o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shakli va metodlari mavzusida o‘z shaxsiy mulohazalarimizni bayon qilamiz va pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilamiz.

Аннотация

В данной статье мы представляем наши личные взгляды на предмет педагогических форм и методов подготовки учащихся к семейной жизни и анализируем их с педагогической точки зрения.

Abstract

In this article, we present our personal opinions on the subject of pedagogical forms and methods of preparing students for family life and analyze them from a pedagogical point of view.

Kalit so‘zlar: Oila, pedagogik shakl, pedagogik metod, talabalar hayoti, pedagog, qadr-qimmat, kelajak avlod, oilaviy tarbiya, farzand tarbiyasi, mahalla.

Ключевые слова: Семья, педагогическая форма, педагогический метод, студенческая жизнь, педагог, достоинство, будущее поколение, семейное воспитание, воспитание детей, соседство.

Key words: Family, pedagogical form, pedagogical method, students' life, pedagogue, dignity, future generation, family upbringing, child upbringing, neighborhood.

KIRISH

O‘zbekistonni yuksalish davridagi ta’lim-tarbiya masalalari davlat taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlariga Oliy ta’limining hozirgi kundagi dolzarb masalalaridan biri aylanganini ta’kidlamoqchimiz. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash mazmuni, shakli va metodlarini belgilashda jamiyatning shaxsni shakllantirish va rivojlantirishga qo‘yiladigan talablari asos qilib olindi. Oila tarbiyasiga doir monografiyalarga tayangan holda talaba-yoshlarni unga tayyorlashda quyidagi muhim omillarni hisobga olish nazarda tutildi: 1. Ijtimoiy omil. Talaba-yoshlarga mustaqillik sharoitida O‘zbekistonda oila-nikoh munosabatlarini tashkil etishning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi, demografiya masalalarining mohiyati va oilada sog‘lom turmush tarzi, uning ijtimoiy institut sifatidagi ahamiyati, oilada er-xotinning o‘rni, oila qadriyatlarini haqida ma’lumot beriladi. 2. Ma’naviy-axloqiy omil. Bunda er-xotin o‘rtasidagi munosabatlar: oilada ota-onaga va boshqa katta yoshdagilarga hurmat, kichiklarga g‘amxo‘rlik; bolalar tarbiyasiga qo‘yiladigan talablar; mas’uliyatni his etish; sadoqat, to‘g‘rilik, insoniylik, bosqilik, adolatlilik, samimiylik, kechirimlilik va boshqalar; oilanikohning axloqiy asoslarini saqlash; sevgi-muhabbatga oilaning axloqiy negizi sifatida qarash; oila, er-xotin va bolalar o‘rtasidagi burchni his etish; botiniy his tuyg‘ular madaniyati; er va xotin, ota-ona to‘g‘risida ideal tasavvurlarni tarbiyalash nazarda tutiladi. 3. Huquqiy omil. Talaba-yoshlarga oila va nikoh to‘g‘risidagi qonun asoslari; oila huquqlarining eng muhim me’yorlari; er va xotinning o‘zaro hamda bolalarga, jamiyatga bo‘lgan munosabati va burchlari tanishtiriladi. 4. Psixologik omil. Insonning shaxs sifatida rivojlanishi, yoshlarga bo‘lgan munosabatlar, oilaviy hayotga nikohning psixologik asoslari; o‘zgaralar bilan munosabatda ularning psixologiyasini tushuna olish; er-xotinlik va oilaviy hayotda eng zarur tuyg‘ularni rivojlantirish, muomala, muloqot madaniyatini egallab olishga doir ko‘nikmalar hosil qilinadi. 5. Jismoniy-gigienik omil. Bunda erkaklar va ayollar fiziologik xususiyatlari, jismoniy bilimga ega bo‘lish; shaxsiy gigiena, jinsiy munosabatlar masalalariga doir ma’lumotlar beriladi. 6. Pedagogik omil. Bola tarbiyasida oilaning ahamiyati haqidagi tasavvurlarni shakllantirish, uning pedagogik imkoniyatlari; oilaviy tarbiyaning

o'ziga xos xususiyatlari, ota va onaning tarbiyaviy vazifasi, ularning pedagogik madaniyatini oshirish yo'llari, shuningdek, yoshlarni bolalar tarbiyasi va o'z-o'zini tarbiyalash bo'yicha bilimlar bilan qurollantirishga e'tibor beriladi. 7. Estetik omil. Oilaviy hayotga munosabatni estetik qadriyatlar sifatida shakllantirishga harakat qilinadi. 8. Xo'jalik-iqtisodiy omil. Oila byudjeti, turmush madaniyati, uy xo'jaligini yuritish malakalarini hosil qilishga doir bilimlar beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosi bilan ko'plab pedagog va psixolog olimlarimiz ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan, Z.F.Mirtursunov, A.Munavvarov, G'.Shoumarov, V.Kariimova, O.Musurmonova, M.Inomova, N.Sog'inov, M.Xolmatova, D.Xoliqov, A.Muxsiyeva va boshqalarning ilmiy – tadqiqot ishlari e'tiborga molik. Shunga ko'ra, ularni oilaviy hayotga tayyorlashda o'ziga xos xususiyat va mas'uliyat kasb etib, yoshlar hayot tarzini, o'z shaxsiy uslubini tarkib toptiradi. Bunda ularning o'ziga xos hayot tarzi, kun tartibi, qiziqishlari, shaxsiy muloqot shakllari paydo bo'ladi. Bular esa talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ilmiy-amaliy holatini chuqur tahlil etish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Hozirgi kunda talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda tuzilma va komponentlardan tashqari, omil va vositalar ham muhim ahamiyat kasb etadi.. Talaba -yoshlar o'zlarini qiziqtirgan muammolar haqida ijodiy, mustaqil, erkin fikr yuritadalar, oila va nikoh masalasida fikr almashadilar, xalqimizning tarbiya tajribalari, oilalarning tarbiyaviy qadriyatlardan o'z chiqishlarida foydalanadilar. Talabalar o'z qarashlari va e'tiqodlarini asoslash, boshqalarning fikrini tanqidiy baholash, do'stlarning qarashlarini tahlil etishga o'rganadilar.Mashg'ulotlarda va auditoriyadan tashqari tadbirlarda ta'lim metodlari bilan birga tarbiyaning ishontirish metodi (ongning shakllanishi), faoliyatni tashkil etish (tajriba hosil qilish), talabalar xulqini rag'batlantirish va boshqalardan ham foydalaniladi. Bunda haqiqiy hayotdan olingan ideallar, namunalar tayaniladi. Zero, mazkur ideallar va namunalar asosida olib borilgan mashg'ulotlar talabalar ongida tasavvurlar hosil qilishga yordam beradi. Talabalar faoliyati pedagogik muammoli vaziyatlar yaratishda samarali natijalar beradi. Oilaviy tarbiyaga doir muammoli vaziyatlarni yechish suhbatlar, rolli o'yinlar asosida tashkil etilganligi muvaffaqiyatli bo'ladi. Muammoli vaziyatlarda rag'batlantirish va kelajak yo'lini ko'rsatish oila a'zolarining o'zaro munosabatlarida, guruhda talabalarning bir-biriga do'stona munosabatlarida namoyon bo'ladi.Xulosa qilib aytganda, yuqorida biz keltirgan barcha metodlardan unumli foydalanish o'qituvchining mazkur fandan har tomonlama bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishini talab etadi. Buning uchun o'qituvchi pediater-shifokor, ginekolog, venerolog, psixolog, sotsiolog, huquqshunos, demograf, faylasuflar, nikoh uyi xodimlari bilan mustahkam aloqa bog'lashi zarur. Bundan tashqari, modalar uyi, muzeylar, teatr,konsert dasturini ishlab chiqish zarur. Biz talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda milliy qadriyatlardan foydalanib, hozirgi davrdagi oila maqomini takomillashtirishda O'zbekiston Respublikasi prezidenti ta'kidlagan dolzarb masalalarni asos qilib oldik. Har bir insonga vatan tuyg'usi ana shu oiladagi ona suti bilan kirib, keyinchalik undagi an'analar, ota-onaning kasb-kori, mehr-muruvvati, tarbiyasi bilan shakllana boradi.

Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash konsepsiyasi mazmuni quyidagi qamrab olishi kerak:

- oila – muhim ijtimoiy institut, davlat tayanchi. U mafkuraviy tarbiyaning muhim ijtimoiy omillardan ekanligi, jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, uning farovonligi va ahilligini ta'minlash.

- oila tushunchasi va uning mohiyati, oilaning maqsad va vazifalari, o'zbek oilalarining o'ziga xos xususiyatlari, oiladagi o'zaro munosabatlarning oila mustahkamligiga ta'sirini ko'rsatish nazarda tutiladi.

- ota-ona va farzandlik burchi, ota-onaning oila tayanchi ekanligi, ularning oila-bobolar, buvilar, farzandlar bilan munosabati.

- otaning oilani moddiy jihatdan ta'minlashi, ota va onaning oilada farzandlar oldidagi burchi yoritib beriladi.

- oilada farzand burchi, ota va ona haqi, islom ta'limotida farzandlarning burchi va mas'uliyati haqida bilim beriladi.

- axloqiylik – ma'naviyat mezoni ekanligi, yoshlarning axloqiy xislatlari:

yigitlardagi mardlik, botirlik, jasurlik, tantilik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, vatanga sadoqat, mehr-shavqat, do'stlik, o'rtoqlik va boshqa xislatlilik; qizlardagi xushxulqlik, hayo va ibo, nazokatlilik, mehr-muhabbat, sadoqat va vafodorlik, latofatlilik, zukkolik va boshqalar.

- yoshlarning xulq-odob qoidalariga rioya etishlari, muomala munosabatda axloqiy me'yorlarini anglab olishlariga e'tibor beriladi.
- oila va nikoh masalalarida axloqiy me'yorlari, oila a'zolarining o'zaro muloqoti va bunda jamoat joylarida muloqoti va bunda jamoat joylarida muloqot madaniyatiga rioya etish.
- oila va oila a'zolarining sirini saqlash; muloqot madaniyati va oilaviy munosabatlar; sir saqlash talablarining milliy qadriyatlarda ifodalashi va ularni tarkib toptirish shakl va metodlari yoritib beriladi.
- mustaqil davlatimiz – O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida fuqarolarning oiladagi burch va mas'uliyati.
- talaba-yoshlarning qonunlarni bilishlari va o'z faoliyatlarida unga rioya etishlari; fuqarolik jamiyatining qonuniy talablari.
- talaba-yoshlar o'rtasida qonunbuzarlik holatlarining paydo bo'lishi sabablari; qonunbuzarlikning oldini olish yo'llari.
- O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual kodeksida huquqiy ongning ifodalanishi; kodeksning mohiyati haqida bilim beriladi.
- oila a'zolari orasida o'zaro munosabatlarning yo'lga qo'yilishi sog'lom psixologik muhit yaratilishining asosiy omili ekanligi.
- oila a'zolari o'rtasida muvofiqlik, o'zaro muloqotga psixologik muhitning ta'siri va bu oila a'zolari o'rtasidagi ijobiy munosabatlar natijasi ekanligi; oiladagi ijtimoiy-maishiy, siyosiy, moddiy turmush ikir-chikirlariga oila a'zolarining psixologik muvofiqligi.
- oila rivojlanishida va er-xotinning o'ziga xos munosabatlarida psixologik muhitning o'rni.
- yoshlarning jinsiy balog'atga etishiga tana a'zolarining anatomik-jismoniy jihatdan o'ziga xosligi, inson organizmida ichki va tashqi organlarining o'zgarishi; ularning belgilari; tasodifiy, nikohsiz jinsiy aloqalardan saqlanish.
- har bir talaba-yoshning poklik va tozalikka rioya etishi; poklik- ma'naviyat negizi ekanligi; xalq tabobatida inson salomatligi, xo'jalik yuritishda poklikka rioya etish; xalq tabobatining oilaviy hayotdagi o'rni; xalq tabobatining asosiy tamoyillarini yoshlarga o'rgatish yo'llari, shakl va metodlarini yoritishga e'tibor beriladi.
- oilada kun tartibiga rioya etish, ota-onaning bolalar kun tartibini yo'lga qo'yishdagi talablari.
- qizlar va yigitlar o'rtasidagi munosabatlar madaniyatini tarbiyalash: o'z hissiyotlarini boshqara olish, o'zini tuta bilish, sabr-qanoat, intizomda milliy qadriyatlarimizga tayanish.
- mehnat tarbiyasida tejamkorlikka rioya etish va isrofgarchilikning oldini olish muhim axloqiy qadriyat ekanligi; tejamkorlikning oiladan boshlanishi; hisobkitob yuritish uquvi; oilada mahsulotlar sifatini saqlash; nonni e'zozlash; liboslar, poyabzallarni, uy jihozlarini asrash va joy-joyiga qo'yish; qishda yozga, yozda qishga tayyorlanish; tejamkorlikda katta yoshdagilarning kichiklarga namunasi sifatida milliy qadriyatda aks ettiradi.

XULOSA

Xulosa qilib takidlash mumkinki, yuqorida ko'rsatilgan oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha ish va tadbirlarni o'tkazishda muayyan ilmiy shakl va metodlardan foydalanish tarbiya samaradorligini oshirishga yordam beradi. Talaba-yoshlarni milliy qadriyatlar mazmuni asosida oilaviy hayotga tayyorlash yo'llari, shakl va metodlarini belgilashda jamiyatning shaxsni shakllantirish va rivojlantirishga qo'ygan talablari asos qilib olindi. Oilada bayramlar, oilaviy an'analar, xotira va qadrlash kunlarni nishonlash bilan bog'liq marosimlarini o'tkazish, ularni milliy qadriyat sifatida avaylab asrash, mustaqillik yillarida tiklangan an'analarimiz, "Navro'z" va uning oila, mahalla, tuman va viloyatlarda, butun Respublikamizda nishonlanishi. Bularning barchasi ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlarda o'rganiladi.

Mazkur tajriba-sinov ishlarimiz Buxoro viloyat "Oila ilmiy amaliy" monografiya markazida maxsus kursi, Buxoro davlat universitetida "Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi" o'quv kursi, "Oila pedagogikasi" va Buxoro muhandislik texnologik institutida "Milliy istiqlol g'oyasi", "Pedagogika" o'quv fanlari mavzulari tarkibida, shuningdek, guruhlarining haftalik yig'ilishlarida talabalar ongiga yetkazildi hamda auditoriyadan tashqari tarbiyaviy tadbirlar tarkibiga kiritildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Musurmonova O va b. Ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirish – jamiyat taraqqiyotining asosi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2012,-B.188
2. Murtazaeva R. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. – Toshkent: Universitet, 2007. – B.129.
3. Munavvarov A. Oila pedagogikasi. - Toshkent.: O'qituvchi, 1994. -112 b.
4. Muxtorov A, Sultonov T. Ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. № 4, may, 2012. – B.2.
5. Dilshodovich, I. S. (2022). TALABALARDA FAMILISTIK KOMPETENSIYANING SHAKLLANTIRISHNING XUQUQIY ASOSI SIFATIDA. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(12), 1210-1215.
6. Dilshodovich, I. S. (2023). TALABALARNING FAMILISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMINI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(18), 874-879.
7. Dilshodovich, I. S. (2022). TALABALARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA MILLIY URF-ODAT VA AN'ANALARDAN FOYDALANISH. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 476-479.
8. Dilshodovich, I. S. (2022). OF PREPARING STUDENTS FOR FAMILY LIFE CONTENT AND LEPROSY. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(2), 117-123.